



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 5-mart

114-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sholi yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-fevraldagi 97-son qarori ijrosi haqida”gi 93-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sholi yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-fevraldagi 97-sonli hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 93-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹- moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sholi yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-fevraldagi 97-son qarori ijrosi haqida”gi 93-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 97-son qarori bilan:

2025-2026-yillarda Xorazm viloyatidagi sholi yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi subyektlariga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat bilan yer tekislash xarajatlari uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

sholi yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi subyektlariga (keyingi o‘rinlarda - sholi yetishtiruvchilar) lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat bilan yer tekislash xarajatlari uchun subsidiya ajratish bo‘yicha talab etiladigan hujjatlar, ularni ko‘rib chiqish hamda subsidiya ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilishi;

sholi yetishtiruvchilarga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat bilan yer tekislash xarajatlari uchun subsidiya ajratish tartibi;

2025-2026-yillarda xarid qilingan zamonaviy sholi urug‘ini ekish seyalkalari va ko‘chatlab ekish uskunalari qiymatining bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Belgilanishicha:

Xorazm viloyatidagi sholi yetishtiruvchilarga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat bilan tekislangan har bir gektar ekin maydoniga sarflangan yonilg'i- moylash materiallari xarajatlarning 100 foizini, biroq 1 mln so'mdan ortiq bo'lmagan qismini qoplab berishi uchun;

2025-2026-yillarda ishlab chiqaruvchidan xarid qilingan va xarid qilinganligiga bir yildan oshmagan, mahalliy ishlab chiqarilgan yoki import qilingan zamonaviy sholi urug'ini ekish seyalkalari hamda ko'chatlab ekish uskunolari qiymatining 20 foizini qoplab berish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan subsidiyalar ajratilishi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Qishloq xo'jaligi vazirligining hisob-kitoblariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarida Xorazm viloyatidagi sholi yetishtiruvchilarga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregat bilan yer tekislash xarajatlari hamda 2025-2026-yillarda xarid qilingan zamonaviy sholi urug'ini ekish seyalkalari va ko'chatlab ekish uskunolari qiymatining bir qismini qoplab berish uchun subsidiyalarga talab etiladigan mablag'larning nazarda tutilishini ta'minlashi;

Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 23-fevraldagi 95-son qaroriga 3-ildavaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i I.Ergashev, Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM (Sh.Yoqubov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 97-son qarori ijrosi talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i I.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov